



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRLIGI HAY’AT
MAJLISINING BAYONI**

2-mart 2026-yil.

2-son

Raislik qiluvchi: J. A. Qo‘chqorov – Iqtisodiyot va moliya vaziri

Qatnashuvchilar: Hay’at a’zolari (ro‘yxat bo‘yicha).

KUN TARTIBI:

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi
“Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish” yilida ustuvor
yo‘nalishlar bo‘yicha islohotlar dasturlari va “O‘zbekiston – 2030”
strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha Davlat dasturi to‘g‘risida”gi
PF–22-son Farmonlari bilan vazirlikka yuklatilgan vazifalarning ijrosini
so‘zsiz ta‘minlash bilan bog‘liq chora-tadbirlar to‘g‘risida**

(J.Qo‘chqorov, I.Norqulov, A.Xaydarov, O.Fazilkarimov, X.Mustafayev,
U.Abidxadjayev, I.Umrzakov, S.Sadullayev, G.Raximova, J.Qo‘chqorov)

Kun tartibidagi masala bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vaziri J. Qo‘chqorov “O‘zbekiston–2030” strategiyasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston xalqi va Oliy Majlisga murojaatnomasida belgilangan islohotlar ijrosini samarali tashkil etish maqsadida “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish” yilida ustuvor yo‘nalishlar yuzasidan islohotlar dasturlari va “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha Davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF–22-son Farmoni qabul qilinganligi haqida axborot berib o‘tib, ushbu Farmon bilan vazirlikka yuklatilgan vazifalar hamda maqsadli ko‘rsatkichlarning ijrosini ta‘minlash yuzasidan Nazorat

reja ishlab chiqilganligi, uning ijrosini ta'minlash yuzasidan vazir o'rinbosarlari, vazirlik markaziy apparatining tarkibiy tuzilmalar rahbarlari, vazirlik tasarrufidagi respublika va hududiy tashkilotlar rahbarlari oldida turgan vazifalar belgilab berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish" yilida ustuvor yo'nalishlar bo'yicha islohotlar dasturlari va "O'zbekiston – 2030" strategiyasini amalga oshirish bo'yicha Davlat dasturi to'g'risida"gi PF-22-son Farmoni bilan vazirlikka yuklatilgan vazifalarning ijrosini belgilangan muddatlarda, to'laqonli va sifatli ta'minlash yuzasidan vazir o'rinbosarlari, vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo'limlari, vazirlik tasarrufidagi respublika tashkilotlari, hududiy boshqarmalar va bo'linmalar rahbar va mutaxassislarining shaxsiy mas'uliyati va javobgarligini kuchaytirish maqsadida hay'at yig'ilishi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish" yilida ustuvor yo'nalishlar bo'yicha islohotlar dasturlari va "O'zbekiston – 2030" strategiyasini amalga oshirish bo'yicha Davlat dasturi to'g'risida"gi PF-22-son Farmoni ***rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.***

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 31-maydagi "Ijro.gov.uz" ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5132-son qarorining 6-ilovasi 9-bandiga asosan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-22-sonli Farmoni bilan vazirlikka yuklatilgan vazifalar ijrosini ta'minlash yuzasidan ishlab chiqilgan va Vazirning birinchi o'rinbosari I. Norqulov tomonidan tasdiqlangan ***Nazorat reja ma'lumot uchun qabul qilinsin.***

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-22-sonli Farmoni bilan vazirlikka yuklatilgan vazifalar hamda maqsadli ko'rsatkichlarning ijrosini ta'minlash yuzasidan ***Ishchi guruhi tarkibi 1-ilovaga muvofiq, "Yo'l xaritasi" 2-ilovaga muvofiq*** hamda vazir o'rinbosarlari kesimidagi ***Kalendar reja 3-ilovaga*** muvofiq tasdiqlansin.

4. Davlat dasturidagi topshiriqlar hamda maqsadli ko'rsatkichlar ijrosi o'rnatilgan muddatlarda, to'liq, sifatli va so'zsiz bajarilishi, shuningdek, ularning ijro holati to'g'risidagi ma'lumotlarning to'g'riligi va ishonchliligiga hamda "Ijro.gov.uz" tizimiga o'z vaqtida kiritilishi uchun vazir o'rinbosarlari ***shaxsan mas'ul etib belgilansin.***

5. Vazir o‘rinbosarlari I. Norqulov, A. Xaydarov, O. Fazilkarimov, X. Mustafayev, U. Abidxadjayev, I. Umrzakov, S. Sadullayev, G. Raximova O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-22-sonli Farmoni bilan vazirlikka yuklatilgan vazifalar, maqsadli ko‘rsatkichlar yil yakuni bo‘yicha erishiladigan natijalarni ta‘minlash mexanizmlari va choraklik samaradorlik ko‘rsatkichlarni nazarda tutuvchi ish rejalarini **5 kun muddatda** ishlab chiqib, tasdiqlash va ularning nazoratini yuritish, ijrosi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga axborot berib borish uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritib borsinlar.

6. Vazir o‘rinbosarlari I. Norqulov, A. Xaydarov, O. Fazilkarimov, X. Mustafayev, U. Abidxadjayev, I. Umrzakov, S. Sadullayev, G. Raximova, vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo‘lim boshliqlari, vazirlik tasarrufidagi respublika ijro etuvchi tashkilotlari rahbarlariga:

3 kun muddat ichida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-22-son Farmoni bilan vazirlikka yuklatilgan vazifalarning ijrosini ta‘minlash yuzasidan **“Yo‘l xaritasi” va Kalendar reja bilan har bir xodimni shaxsan tanishtirib chiqish**, uning mazmun-mohiyatini yetkazish, ushbu hujjatlarda belgilangan vazifalarning ijrosi belgilangan muddatlarda, to‘laqonli va sifatli ta‘minlanmagan taqdirda **intizomiy jazo chorasi muqarrarlighi haqida rasman ogohlantirish** orqali barcha darajadagi rahbar va xodimlarning shaxsiy mas‘uliyati va javobgarligini kuchaytirish;

har chorak yakuni bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-22-sonli Farmonining 19-band “g” kichik bandiga muvofiq Farmon bilan vazirlikka yuklatilgan vazifalarning ijrosini ta‘minlash bo‘yicha olib borilayotgan ishlar haqida Strategik rivojlanish va islohotlar agentligiga, Taraqqiyot strategiyasi markazi va “Yuksalish” harakatiga axborot taqdim etib borish;

ushbu Farmon doirasida joriy yilga belgilangan ustuvor topshiriqlar ijrosini o‘z vaqtida, to‘liq va sifatli ta‘minlash bo‘yicha ishlarni to‘g‘ri rejalashtirish, topshiriq ijrosini amalga oshirish uchun eng kam mablag‘, resurs va energiya sarflanishi zarurligini inobatga olish;

topshiriqlar ijrosini muddatidan avval bajarish bo‘yicha oldindan zaruriy chora-tadbirlarni belgilash va amalga oshirish, yuzaga kelayotgan har bir muammoli masalani vazir o‘rinbosarlari, lozim bo‘lsa, Vazirning birinchi o‘rinbosari huzurida muhokama qilib, hamkorlik va muloqot asosida hal etish vazifalari yuklatilsin.

7. Ijro apparati rahbari o‘rinbosari F. Xamdamovga:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-22-sonli Farmoni bilan vazirlikka yuklatilgan vazifalar ijrosini ta‘minlash yuzasidan

tasdiqlangan **Nazorat reja**, **“Yo‘l xaritasi”** va **vazir o‘rinbosarlari kesimidagi Kalendar rejadagi** topshiriqlar ijrosi yuzasidan **kunbay tizimida** tizimli va qat‘iy monitoring yuritish;

tarkibiy tuzilmalar o‘rtasida **Nazorat rejasidagi** topshiriqlarni amalga oshirishda yuzaga keladigan munozarali masalalar bo‘yicha yakuniy xulosa qabul qilish vakolati berilsin va **Nazorat rejasida** ko‘zda tutilgan topshiriqlarning ijrosi o‘z vaqtida ta‘minlanishi bo‘yicha doimiy ravishda rahbariyatga axborot kiritib borish;

mazkur Farmon doirasida joriy yilga belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlar bo‘yicha ustuvor islohotlar dasturidagi topshiriqlar ijrosi bo‘yicha **“Ijro.gov.uz”** tizimiga kiritilgan ma‘lumotlar va tasdiqlovchi hujjatlarga asosan topshiriqlarni nazoratdan yechish yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Hisob palatasi bilan muntazam ravishda hamkorlikda ish olib borish vazifalari topshirilsin.

9. Mazkur qarorning ijrosini tashkil qilish, **har oy yakuni bilan** vazir o‘rinbosarlari huzurida tanqidiy muhokama qilib, tegishli choralar belgilash vazifasini vazirning tegishli o‘rinbosarlariga yuklab, uning nazoratini o‘z zimnamda qoldiraman.

Hay‘at raisi



J. Qo‘chqorov